

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**



**MAXSUS FANLARNI O‘QITISH METODIKASI
FANI BO‘YICHA SILLABUS**

Bilim sohasi: 500000 – Tabiiy fanlar, matematika va statistika
Ta‘lim sohasi: 530000 - Fizika va tabiiy fanlar
Ta‘lim yo‘nalishlari: 70530101- Kimyo

Termiz-2024



Modul/FAN SILLABUSI
Kimyo fakulteti
70530101- Kimyo



Fan nomi:	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi
Fan turi:	Majburiy
Fan kodi:	MFOM1106
Yil:	2024/2025
Semestr:	I
Ta'lim shakli:	Kunduzgi
Mashg'ulotlar shakli va semestrga ajratilgan soatlar:	180
	<i>Semestr</i>
	I- semester
Umumi o'quv soati:	180
Auditoriya soati:	60
Ma'ruza:	30
Amali mashg'ulotlar:	
Labaratoriya mashg'ulotlari:	
Seminar:	30
Mustaqil ta'lim:	120
Kredit miqdori:	6
Baholash shakli:	Yozma
Fan tili:	O'zbek

Fan maqsadi(FM)

Fanni o'qitishdan maqsad - magistr'larga zamonaviy axborot-kommunikatsion va innovatsion-pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish, o'qitishning faol usullarini tanlash, kimyo o'qitish metodikasi bo'yicha ilmiy-pedagogik tadqiqotlar o'tkazish hamda ta'lim sifatini nazorat qilish usullarini o'rgatishdan iborat.

Fanni o'zlashtirish uchun zarur boshlang'ich bilimlar

Magistrlar fanni o'zlashtirishi uchun umumiy pedagogika, kimyo o'qitish metodikasi, noorganik kimyo, analitik kimyo, organik kimyo, fizikaviy kimyo, kimyo tarixi va metodologiyasi fanlaridan fundamental bilimlarni bilishi talab etiladi.

Ta'lim natijalari (TN)

Bilimlar jihatidan:

TNI	Oliy ta'limni rivojlantirishning strategik asoslarini chuqur biladi, xususan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, zamonaviy o'quv rejalar va didaktik ta'minot yaratish
------------	---

	tamoyillarini nazariy jihatdan asoslay oladi.
TN2	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasining nazariy va metodologik asoslarini egallaydi, an'anaviy va innovatsion o'qitish yondashuvlarining ilmiy-pedagogik mohiyatini tahlil qiladi.
TN3	Kimyo fanini oliy ta'limda o'qitishning psixologik-pedagogik qonuniyatlarini, talabalarning kognitiv rivoji, motivatsiyasi va kasbiy shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni chuqur tushunadi.
TN4	Zamonaviy pedagogik, raqamli, elektron (e-learning) va mobil (m-learning) texnologiyalarining nazariy asoslari, didaktik imkoniyatlari va cheklovlarini biladi.
TN5	Kimyo o'qitish metodikasida ilmiy-tadqiqot metodlari (pedagogik tajriba, kuzatuv, testlash, statistik tahlil)ning nazariy asoslari va ularni ta'lim jarayonida qo'llash mexanizmlarini biladi.
Ko'nikmalar jihatidan:	
TN6	Ma'ruza, seminar, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida loyihalaydi, reja-konspekt va uslubiy materiallarni mustaqil ishlab chiqadi.
TN7	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (LMS, virtual laboratoriyalar, onlayn platformalar, raqamli kontent) maxsus fanlarni o'qitish jarayoniga samarali integratsiya qiladi.
TN8	Laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish metodikasini tanlaydi, xavfsizlik, natijadorlik va didaktik maqsadlar uyg'unligini ta'minlaydi
TN9	Ta'lim sifatini baholash vositalarini (testlar, reyting tizimi, rubrikalar, kompetensiyaviy baholash) ishlab chiqadi va talabalarning o'quv natijalarini pedagogik standartlar asosida tahlil qiladi.
TN10	Ilmiy-pedagogik tadqiqotlar olib boradi, kimyo o'qitish metodikasi bo'yicha ilmiy maqola, tezis va hisobotlar tayyorlaydi hamda ilmiy xulosalarni asoslab bera oladi.
Kompetensiyalar jihatidan:	
TN11	kimyo, pedagogika, boshqaruv va zamonaviy axborot texnologiyalarining integratsiyalashgan bilimlarini murakkab kasbiy muammolarni hal etishda qo'llay oladi;
TN12	oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini zamonaviy pedagogik, raqamli, elektron ta'lim (e-learning) va mobil ta'lim (m-learning) texnologiyalari asosida rejalashtiradi va olib boradi;
TN13	laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar uchun o'quv-uslubiy materiallar ishlab chiqadi hamda talaba o'quv natijalarini pedagogik standartlar asosida baholaydi;

Fan mazmuni		
Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M)		
1-semestr		
M1	O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.	2
M2	Oliy ta'limda yangi o'quv rejalar, dasturlar, darsliklarning zamonaviy didaktik ta'minotini ishlab chiqish asoslari.	2
M3	Maxsus fanlarni o'qitish uslubiyatining nazariy asoslari.	2
M4	Oliy ta'limda maxsus fanlarni o'qitishning an'anaviy usullarini takomillashtirish va ularni o'quv jarayoniga joriy etish.	2
M5	Maxsus fanlarini o'qitishda yangi pedagogik - innovatsion texnologiyalaridan foydalanish.	2
M6	Maxsus fanlarini o'qitishda axborot texnologiyalar.	2
M7	Oliy ta'lim o'quv yurtlarida mashg'ulotlarni tashkil etish turlari.	2
M8	Maxsus fanlarini o'qitishning metodologik masalalari.	2
M9	Kimyo o'qitish metodikasining ilmiy-tadqiqot metodlari.	2
M10	Professional ta'limda kimyo fanini o'qitish xususiyatlari.	2
M11	Pedagogika oliy ta'lim yurtlarida umumiy kimyo fanining konsepsiyasini o'qitish xususiyatlari.	2
M12	O'quv jarayonini pedagogik- psixologik asoslari.	2
M13	Oliy o'quv yurtlarda darslarni tahlil qilish uslubiyati.	2
M14	O'qituvchining kasbiy mahorati hamda unda tilning o'rni va ahamiyati.	2
M15	Pedagoglik kasbi va uning zamonaviy oliy o'quv yurtlaridagi roli.	2
	Jami soat:	30
Mashg'ulotlar shakli: seminar mashg'ulot (S)		
1-semestr		
S1	Oliy ta'limning me'yoriy huquqiy hujjatlari bilan ishlash.	2
S2	Ta'lim yo'nalishlari DTS, fan, ishchi o'quv dasturlari bilan ishlash.	2
S3	Mutaxassislik fanlardan ma'ruza mashg'uloti reja-konspektini tuzish.	2
S4	Mutaxassislik fanlardan amaliy mashg'ulotlar rejasini tuzish.	2
S5	Mutaxassislik fanlardan uslubiy tavsiyalar tayyorlash.	2
S6	Mutaxassislik fanlardan malakaviy (o'quv-tanishuv, ishlab chiqarish, pedagogik, bitiruv oldi) amaliyot rejasini tuzish.	2
S7	Maxsus fanlarni o'qitishda zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish.	2
S8	Laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish, o'tkazish metodikasi.	2
S9	O'qitishning faol usullari va ularni tanlash.	2
S10	Maxsus fanlarni innovatsion-pedagogik texnologiyalar asosida o'qitishni mashq qilish.	2

S11	Kimyo o'qitish metodikasi va nazariyasi bo'yicha ilmiy-pedagogik tadqiqotlar tahlili.	2
S12	Oliy ta'limda kimyo o'qitish jarayonlariga axborot texnologiyalarini joriy etish.	2
S13	Ta'lim sifatini nazorat qilish usullarini o'rganish.	2
S14	Testlar haqida tushuncha va ularni tayyorlash metodikasi.	2
S15	Mustaqil ishlarni tashkil etish.	2
Jami soat:		30
Mustaqil ta'lim (MT)		
1-semestr		
1	Ta'limning zamonaviy muammolari. Kimyo fanini o'qitishni takomillashtirish yo'llari.	8
2	O'rta va oliy ta'limning uzluksizligi.	8
3	Ta'lim jarayoni va o'qitish turlari.	8
4	O'qitish, ta'lim olish va bilish inson faoliyatining maxsus turi sifatida. Ta'lim jarayonining turlari.	8
5	Kimyo o'qitishning axborot va samarali ijodiy maqsadlari.	8
6	Zamonaviy mutaxassis va jamiyat tomonidan unga qo'yiladigan asosiy talablar.	8
7	Tabiiy va gumanitar fakultetlarida kimyo o'qitish maqsadlari, mazmuni.	8
8	Ta'lim modellari.	8
9	Ta'lim mazmunini aniqlash uchun tizimli yondashuv.	8
10	Kimyo o'qitish jarayoni pedagogik tizim sifatida.	8
11	O'qitish metodlari haqida asosiy tushunchalar.	8
12	Qisman-izlanuvchan va an'anaviy ta'lim usullari.	8
13	Ta'limning uzluksizligi. O'z-o'zini o'rganish va o'z-o'zini tarbiyalash qobiliyatlarini rivojlantirish usullari.	8
14	Oliy ta'limda amaliy, laboratoriya mashg'ulotlarning mazmuni.	8
15	Kimyo o'qitishning tashkiliy ta'lim shakllari: ma'ruza, seminar mashg'ulotlari, amaliy va laboratoriya ishlari, mustaqil ish, auditoriyadan tashqari ishlar.	8
Jami:		120

Asosiy adabiyotlar		
1	To'xtayeva Z.Sh. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. Darslik.– Toshkent: 2020. – 211 b.	
2	Norqulov U.M., Ruziyev E.A., Nasimov X.M., Ruziyev I.X. Kimyo fanini o'qitishda qo'llaniladigan innovatsion texnologiyalar. (Interaktiv, interfaol usullar va keyslar). Uslubiy qo'llanma.-Samarqand: SamDU, 2020.	
3	Norqulov U. Maxsus fanlarni o'qitish uslubiyati. SamDU, 2022. 212bet O'quv qo'llanma.	
4	Rahmatullayev N.G., Omonov X.T., Mirkomilov Sh.M. Kimyo o'qitish	

	metodikasi.-Toshkent: O'qituvchi. 2013.
5	Ivanov P.I., Zufarova M.E. Umumiy psixologiya. T: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008.
Qo'shimcha adabiyotlar	
1	O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2023.
2	O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonuni.
	Internet saytlari
	<ol style="list-style-type: none"> 1. https://uz.khanacademy.ore/ 2. http://www.chem.msu.ru 3. http://www.rushim.ru 4. http://www.Zivo.net

Magistrantning fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichini nazorat qilishda quyidagi mezonlar tavsiya etiladi:

Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi fanidan magistrantlar Hemis dasturida 100 ballik kredit-baholash tizimida baholanadi. O'tish balli 60 ball.

Shundan, magistrant:

- joriy va oraliq nazoratlarda — 50 ball
- yakuniy nazoratda — 50 ball to'plashi mumkin.

JN mezon:

Joriy nazorat bo'yicha magistrantlarni baholashda 20 ball ajratilgan. Amaliy mashg'ulotlarda har bir mavzu uchun 0,8 ball beriladi. Magistrlar amaliy mashg'ulotlardan jami — 12 ball to'play oladilar. Shuningdek, 1–8-mustaqil ish topshiriqlari uchun har bir mavzu bo'yicha 1 ball beriladi. Jami — 8 ball.

ON mezon (30 ball)

Oraliq nazorat ma'ruza mashg'ulotlari tugagach o'tkaziladi. Magistrlarga og'zaki yoki test shaklida savollar beriladi va oraliq nazoratda magistrlar maksimal 30 ball to'playdilar.

Joriy va oraliq nazoratlardan minimal 30 ball to'plagan magistrga yakuniy nazorat topshirishiga ruxsat beriladi.

YaN mezon (50 ball)

Yakuniy nazoratda magistrantlar 5 ta savoldan iborat yozma ish bajaradilar. Har bir savolga to'liq va mazmunli yozilgan javob 10 balldan baholanadi, jami 50 ball. Bunda magisrt yakuniy nazoratdan o'tishi uchun 30 ball to'plashi talab etiladi.

Fan o'qituvchilari haqida ma'lumot

Mualliflar:	K.F.F.D. Umirova G.A.– “Fizikaviy Kimyo” Kafedrası mudiri
E-mail:	umirova81@internet.ru
Tashkilot:	Termiz davlat universiteti “Fizikaviy kimyo” kafedrası
Taqrizchilar	Kasimov Sh.A.– TerDU., noorganik kimyo kafedrası mudiri, kimyo fanlari doktori prof. Normurodov B.A.– TerDU, analitik kimyo kafedrası mudiri, texnika fanlar doktori, prof.

Mazkur Sillabus universitet Kengashining 2025-yil ____ - avgustdagi 1-sonli yig'ilish bayoni bilan tasdiqlangan.

Mazkur Sillabus “Fizikaviy kimyo” kafedrasining 2025-yil ____ - avgustdagi 1-sonli yig'ilish bayoni bilan ma'qullangan.

O'quv uslubiy boshqarma boshlig'i: I. Shoymardonov

Fakultet dekani: B. Xolnazarov

Kafedra mudiri: Umirova G.A.

Tuzuvchilar: Umirova G.A.

